



Gulbaxor ISHMURADOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.n
E-mail: gulbaxorishmuradova@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori, DSc N.Aripova taqrizi asosida

FORMING ENTREPRENEURIAL SKILLS IN STUDENTS IN THE DUAL EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article discusses the content of the concepts of dual education and entrepreneurship, the research work of scientists who have contributed to the development of dual education and the formation of entrepreneurial skills, the formation of entrepreneurial skills in students in the field of folk crafts, the role of entrepreneurial skills in needlework and embroidery, and the methodology of teaching entrepreneurship through the production of needlework and embroidery products.

Key words: Entrepreneurship, competence, embroidery, embroidery design, innovative method, dual education.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются содержание концепций дуального образования и предпринимательства, исследовательская работа ученых, внесших вклад в развитие дуального образования и формирование предпринимательских навыков, формирование предпринимательских навыков у учащихся в области народных промыслов, роль предпринимательских навыков в рукоделии и вышивке, а также методология обучения предпринимательству на примере производства изделий ручной работы и вышивки.

Ключевые слова: Предпринимательство, компетентность, вышивка, дизайн вышивки, инновационный метод, дуальное образование.

DUAL TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada dual ta'lim va tadbirkorlik tushunchalarining mazmuni, dual ta'limni rivojlantirishga va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shgan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari, xalq hunarmandchilik yo'nalishida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, quroqchilik va kashtachilikda tadbirkorlik ko'nikmalarining o'rni, quroqchilik va kashtachilik mahsulotlarini tayyorlash orqali tadbirkorlikka o'qitish metodikasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kompetensiya, quroqchilik, kashtachilik konstruksiyalash, innovatsion metod, dual ta'lim.

Kirish. Dual ta'lim pedagogikada qadimdan mavjud bo'lib, dunyoning turli mamlakatlarda o'zini yaxshi isbotlagan. Dual ta'lim O'zbekistonda nisbatan yaqin davrlardan boshlab kirib kelayotgan bo'lsada, lekin u allaqachon yangi professional xodimlarni tayyorlash uchun juda mashhur yondashuv hisoblanadi. Dual ta'lim tizimi hozirgi kunda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashning eng samarali usullaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. Bu tizim o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda, mehnat bozori talablariga mos ravishda raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishish imkonini beradi. Xususan, tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda dual ta'limning o'rni beqiyosdir. Texnologik ta'lim yo'nalishida bu jarayon yanada dolzarb bo'lib, o'quvchilarning konstruktorlik, tadbirkorlik, innovatsion va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim tizimi - bu o'quvchi o'quv muassasasida nazariy bilimlarni, ish joyidagi tashkilotda amaliy ko'nikmalarni oladigan mashg'ulot turi. Dual o'qitish modeli professional va oliy o'quv yurtlarida qo'llaniladi va mutaxassislar bilan qiziqqan tijorat tashkilotlari va hukumat idoralari tomonidan birgalikda moliyalashtiriladi[1].

Dual ta'lim zamonaviy professional ta'limning ta'lim standartlari asosida kompetensiyaviy yondashuvining asosiy tamoyillariga (nazariya va amaliyotning birligi, o'quv jarayonida fanlararo kompleks yondashuv, ko'nikma va

bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llashga e'tibor) to'liq javob beradi.

Dual tizimning innovatsionligi quyidagicha:

- o'quv jarayonini tashkil qilishdagi o'zgarishlar (sinfdagi darslar kamayadi, ishlab chiqarish amaliyoti hajmi o'quv dasturining 60-70 foizigacha ko'payadi);

- ishlab chiqarish amaliyoti individual yondashuvga asoslangan va real ishlab chiqarish sharoitlariga imkon qadar yaqinroq bo'ladi;

- korxonadan dual moliyalashtirish choralari ko'riladi;

- ishlab chiqarishda mentorlik institutini rivojlantiriladi.

Dual ta'lim — bu ta'lim muassasasidagi nazariy tayyorgarlik va korxonadagi amaliyot jarayonlarining birgalikda tashkil etilishiga asoslangan pedagogik tizimdir. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarda kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida shakllantirishdir [2]. Dual ta'lim tizimi quyidagi ustunliklarga ega:

nazariya va amaliyotning uyg'unligi;

o'quvchilarning ishlab chiqarish muhitiga tez moslashuvi;

ish beruvchilar uchun tayyor kadrlar rezervini shakllantirish;

o'quvchilarda o'z biznes g'oyalarini amalga oshirishga rag'bat uyg'otish.

Adabiyotlar tahlili. Dual talim tizimi bo'yicha Viltgelm fon Gumboldt, X.P.Kremers, Lyudvig Erdman, Sh.X.Xamidov, D.A.Ashurov, Z.J.Xusanov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida bayon qilingan. Tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha Jozef Shumpeter, Piter Druker, Govard Stivenon, A.Abdullayeva, N.Qosimov, Sh. Otoboyev, M. Tojiyev, B.Qodirov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan: "Hunarmand" uyushmasi dastaklari; imtiyozli kreditlar; mehr guruhlari va kooperatsiyalar; mahalla va ayollar daftari orqali grantlar; "Usta-shogird" an'anasi asosida kurslar yoshlarning bu sohada tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun keng sharoit yaratadi. Oliy ta'lim tizimida talabalarga xalq hunarmandchiligidan bilim berishda tarixiy manbalarni tahlil qilish, hunarmandchilik buyumlari bilan tanishtirish, ish jarayonini kuzatish, tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi analiz va sintez, tahlil qilish, taqqoslash va sistemalashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Texnologik ta'limda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda o'quvchilarda mahsulot yaratish, uni loyihalash, konstruktorlik faoliyatini amalga oshirish va innovatsion yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

konstruksiyalash jarayonida iqtisodiy tahlilni o'rgatish; tayyor mahsulotni bozorga chiqarish strategiyalari bilan tanishtirish;

innovatsion g'oyalarni amaliy loyihalar orqali rivojlantirish;

marketing, menejment va moliyaviy savodxonlik elementlarini o'quv jarayoniga kiritish.

Tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari quyidagicha ifodalanadi: texnologik ta'lim misolida dual tizimda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Loyiha-ijodiy faoliyat. O'quvchilar innovatsion mahsulot ishlab chiqish, uning ishchi loyihasini tayyorlash va amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradi.

2. Ishlab chiqarish amaliyoti Korxonalarda o'tkaziladigan amaliyot ularda ish jarayonini ko'rish, menejmentni kuzatish va tadbirkorlik tajribasini o'rganishga yordam beradi.

3. Trening va biznes-o'yinlar. O'quvchilarga bozor sharoitida qaror qabul qilish, mahsulot tanlovi va sotuv strategiyasini shakllantirish ko'nikmalarini beradi.

4. Loyihani himoya qilish. Bu bosqichda o'quvchilar o'z biznes g'oyalarni prezentatsiya qilib, ularni amalga oshirish mexanizmlarini asoslab beradi.

Korxonalar va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik modeli. Dual ta'limda samarali natijaga erishish uchun korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasida quyidagi hamkorlik mexanizmlari amal qiladi:

birgalikda o'quv dasturini yaratish;

korxonalarda o'quvchilar uchun ish o'rinlari tayyorlash;

mutaxassislar ishtirokida amaliyot va master-klasslar o'tkazish;

o'quvchilar loyihalarini korxonalarda sinovdan o'tkazish;

istiqbolli ishlab chiqarish loyihalarida o'quvchilar ishtirokini ta'minlash.

Dual ta'lim tizimida tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy natijalari.

Texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarni dual tizim asosida tadbirkorlikka o'qitish quyidagi natijalarni beradi:

o'quvchilarda ijodiy faollik va tashabbuskorlik ko'nikmalari shakllantiriladi;

bozorga yo'naltirilgan mahsulot konsepsiyalari paydo bo'ladi;

amaliyot davomida olingan ko'nikmalar kelajakda o'z biznesini yo'lga qo'yishda asos bo'ladi;

o'quvchilarda raqobatbardoshlik va innovatsion fikrlash rivojlanadi.

Umumiy o'rta talim tizimida Texnologiya darslarida o'quvchilarda tadbirkorlikka oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar bor. Quyida umumiy o'rta ta'lim tizimida "Quroqchilik va kashtachilik mahsulotlarini tayyorlashda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi" mavzusini o'qitish bilan tanishamiz.

Milliy hunarmandchilik — xalqimizning ko'p asrlik madaniy merosi va iqtisodiy qudratining muhim tarmoqlaridan biridir. Quroqchilik va kashtachilik san'ati nafaqat estetik qiymatga ega, balki bozor sharoitida yuqori talabga ega bo'lgan amaliy mahsulotlar tayyorlash imkonini beradi. Bugungi kunda bu sohani zamonaviy tarzda qayta rivojlantirish, sotuv bozorini kengaytirish va tadbirkorlikni kuchaytirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur maqolada quroqchilik va kashtachilik mahsulotlarini tayyorlash jarayonida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish, o'quvchilar va yoshlar orasida bu sohadan biznes tashkil qilish imkoniyatlari yoritiladi [4,5].

Quroqchilik va kashtachilikning zamonaviy ahamiyati. Quroqchilik va kashtachilik mahsulotlari bugungi kunda quyidagi yo'nalishlarda talabga ega: milliy suvenirilar; interyer bezaklari (ko'rpa-to'shak jildlari, parda, yong'oqcha, panno); kiyim-kechak va aksessuarlar; bayram sovg'alari; to'y-hasham buyumlari; eksportbop qo'l mehnati mahsulotlari. Bozorda milliy uslubga bo'lgan talabning o'sishi qo'l mehnati bilan tayyorlangan mahsulotlarning qiymatini yanada oshirmoqda.

Quroqchilik va kashtachilikda tadbirkorlik ko'nikmalarining o'rni. Bu sohada tadbirkorlikni rivojlantirish uchun o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanishi muhim ahamiyatga ega.

— Ijodiy g'oyalarni yaratish bo'yicha tajribalar shakllantiriladi;

— Mahsulot dizaynining boshqalardan farq qilishi va bozorda alohida o'rin egallashiga e'tibor qaratiladi;

— Asosiy texnologik jarayonni bilishi ketma-ketligi aniqlashtiriladi;

— Matolar turi, choklar, tikuv texnikasi, ranglar uyg'unligi va dizayn qonunlarini biladigan hunarmand raqobatbardosh mahsulot yarata oladi.

— Moliyaviy savodxonlik ko'nikmalari shakllantiriladi;

— Xomashyo tannarxi, mahsulot qiymati, sotuv narxi, foyda va xarajatlarni hisoblash.

— Marketing va sotuv strategiyalarini rivojlantirish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Mahsulotni onlayn va oflayn tarzda sotish usullari, targ'ibot, reklama, tarmoqlarda faollik.

— Brend yaratish malakasi shakllantiriladi.

Logotip, qo'lda yasalgan mahsulot sifatini, shirkati nomi va stil — xaridor ishonchini oshiradi.

Quroqchilik va kashtachilik mahsulotlarini tayyorlash orqali tadbirkorlikka o'qitish metodikasi quyidagi ketma-ketlik asosida olib boriladi.

1. Amaliy loyihalarni tashkil etish. O'quvchilar o'zlari quroqchilik yoki kashtachilik mahsulotlarini (so'mka, joypo'sh, joynomoz, quroq ko'rpacha, yostiqlik) tayyorlaydi, uning: dizayn loyihasini, xomashyo hisobini, tannarxini, sotuv narxini aniqlaydi.

2. Mahsulot yorliqlari va ko'rgazmalar. O'quvchilar tayyor mahsulotni ko'rgazmaga olib chiqadi va xaridorlar fikrini o'rganadi. Bu ularga real bozor munosabatlarini o'rganish tajribasini beradi.

3. Biznes reja tuzish. Kichik korxonalar yoki oilaviy studiya ochish uchun biznes reja: maqsad, maqsadli auditoriya, mahsulot turi, xarajat va daromad, sotuv kanallari bilan tayyorlanadi.

4. Onlayn savdo platformalaridan foydalanish. O'quvchilarga quyidagi platformalarni o'rgatish mumkin: Instagram, Facebook; Telegram kanallarda sotuv; Etsy; OLX va Mahsulotlar.uz.

5. Xizmat turlarini kengaytirish. Quroq va kashtachilikda quyidagi xizmatlar manfaatli hisoblanadi: buyurtma asosida mahsulot tayyorlash; sovg'alar to'plami yasash; interyer uchun maxsus dizayn loyihalari; to'y uchun milliy buyumlar tayyorlash.

Quroqchilik va kashtachilik asosida kichik biznesni yo'lga qo'yish imkoniyatlari.

— Oilaviy tikuv sexi tashkil etish mumkin bo'ladi.

— Tikuv mashinalari, parda, yotoq komplektlari, milliy suvenirlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

— Milliy dizayn studiyasi. Eksklyuziv pannolar, qo'l mehnati aksessuarlari va interyer buyumlari tayyorlanadi.

— Onlayn-do'kon ochish.

Tayyor mahsulotlar internet orqali buyurtma asosida sotiladi.

— Turistik suvenir bozori

Quroq va kashta ishlariga turistlar juda katta qiziqish bildirishadi.

— Oqibatda ish o'rinlari yaratiladi.

Bu sohada ko'proq xotin-qizlar, talaba yigit-qizlar va uyda ish qidirganlar faol ishtirok eta oladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dual ta'lim tizimi o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Texnologik ta'lim misolida bu jarayon o'quvchilarning ijodiy, konstruktorlik, amaliy va biznes tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda ularning nafaqat malakali mutaxassis, balki zamonaviy tadbirkorlar sifatida kamol topishiga zamin yaratadi. Quroqchilik va kashtachilik mahsulotlarini tayyorlash bugungi kunda nafaqat milliy an'anani saqlab qolish, balki iqtisodiy faollikni kengaytirishning muhim vositasidir. O'quvchilar va yoshlar ushbu sohada tadbirkorlik ko'nikmalarini egallasalar, ular bozorda raqobatbardosh mahsulot yarata oladi; o'z biznesini ochish imkoniga ega bo'ladi; milliy san'atni rivojlantirishga hissa qo'shadi; zamonaviy talablarga mos innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Madjitov A.A. Dual ta'limni amalga oshirishda muhim bo'lgan meyoriy hujjatlar va ularning mazmuni. <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2124>
2. Петров Ю.Н. Дуальная система инженерно-педагогического образования – инновационная модель современного профессионального образования. Н. Новгород, 2009. 280 с.
3. Дуальное образование в Ярославской области: Организационный этап: Методическое пособие / В.Ю. Выборнов и др.; под ред. В.Ю. Выборнова. Ярославль: ГОАУ ЯО ИРО, 2014. 155 с.
4. Ishmuradova G.I., O'rokov K.X., Mirzayeva G.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Qarshi. Fan va ta'lim 2021.- 374 b.
5. Ishmuradova G.I., Mirzayeva G.M., Mirzayev E.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Qarshi. Nasaf NMU 2021.- 343 b.